



UO'T: 631.3

BUZILGAN YERLARNI REKULTIVATSIYA QILISH BO'YICHA ISHCHI LOYIHALARNI SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Sayfuddin Raximovich Sharipov
"TIQXMMI" MTU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada tabiiy resurslardan me'yordan ortiq foydalanish va ekologik talablarni bajarmaslik, sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarning hosil bo'lishi natijasida paydo bo'lgan buzilgan yerlarni rekultivatsiyalashning zarurati va uni amalga oshirishda yer tuzish ishchi loyihalarining roli hamda uning samaradorligini aniqlash masalalari keltirilgan.*


Kalit so'zlar: *buzilgan yerlar, rekultivatsiya, ishchi loyihalar, qishloq xo'jaligi, yerdan foydalanish, kapital xarajatlar, samaradorlik, ekologik talablar, yer tuzish tadbirlari.*

KIRISH

Tabiiy resurslardan me'yordan ortiq foydalanish va ekologik talablarni bajarmaslik, cho'llanish, suv tanqisligi, sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarning hosil bo'lishi bir qator global va mintaqaviy ekologik muammolarni paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu muammolar iqlim o'zgarishi sodir bo'layotgan sharoitlarda yanada yaqqolroq va kuchliroq namoyon bo'lmoqda, shuningdek, hozirgi kunda O'zbekiston uchun ham atrof muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirish masalalari yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Maqsad: Insoniyatning ishlab chiqarish faoliyati ortishi natijasida ekologik sharoit yomonlashib, respublikamizda buzilgan yerlar miqdorlari ham ortib bormoqda. Buni shu bilan izohlash mumkinki: yangi uy joylarning qurilishi, shahar va sanoat chiqindilari, tuproq qatlamining yemrilishi, texnogen rel'eflarning shakllanishi; bu o'z navbatida atrof muhitga, inson salomatligiga qolaversa davlat budget xarajatlarini oshishiga ham olib keladi. Shu bilan birga olimlarning takidlashicha, tabiiy sharoitlarda tuproq shakllanishi 100 yil ichida 0,5-2 sm hajmida paydo bo'lishi aniqlangan. [4]

Inson faoliyati natijasida foydalanishga yaroqsiz holga kelib qolgan yoki tuproq qatlami tarkibi va o'simlik dunyosi, gidrologik sharoiti o'zgarishi va rel'efi buzilishi natijasida atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbaga aylangan yerlar buzilgan yerlar deb e'tirof etilgan. Ular atrofda hududlarning tuprog'ini, havosini, suvlarini ifloslaydigan, aholi turmushining gigiyena sharoitlarini va landshaftlarning umumiy ko'rinishini yomonlashtiradigan manbaalarga aylanadi [5]. Qazilma boyliklarni ochiq usulda qazib olish natijasida hosil bo'ladigan va tartibsiz joylashgan kar'erlar, tuproq va tog' jinslari uyumlari tabiiy landshaftlarni buzib, ularga giyox o'smaydigan cho'l manzarasini beradi. Avtomobil yo'llarini va boshqa shunga o'xshash inshootlarni





qurish, eng ko'p yerlarning buzilishiga sabab bo'ladi. Buzilgan yerlar esa o'z navbatida qayta tiklanishi, ya'ni rekultivatsiya qilinishi zarur.

Tadqiqot uslubi. Faoliyati yerlarning buzilishiga olib keladigan ob'ektlar uchun yer ajratishda rekultivatsiyalash ishlari texnologik jarayonning ajralmas qismi sifatida (GOST 17.5.1.01) loyihalani kerak.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-bob 12-moddasida buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha loyihalarni tayyorlash masalalari yer tuzish vazifalariga kiritilgan [1].

Rekultivatsiya yerlardan har xil tarmoqlarda va maqsadlarda, asosan qishloq xo'jaligida foydalanish uchun bajarilishi mumkin. Rekultivatsiyalangan yerlardan foydalanish usullari ular joylashgan tabiiy va texnik sharoitlarga, xo'jalik va ijtimoiy zarurlarga va iqtisodiy manfaatdorlikka bog'liq bo'ladi. Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish uchun yer tuzish ishchi loyihasi ishlanadi. Ishchi loyihalarni tuzish yer tuzish loyihalarida ko'zda tutilgan tadbirlarni pudratchi tashkilotlar yordamida yoki xo'jalik yo'li bilan, bosqichma-bosqich, eng oqilona tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Amaliyot ko'rsatishicha, ishchi loyihalarini kapital mablag'lar sarflashni talab qiladigan, yerlarni yaxshilash va muhofaza qilish bilan bog'liq barcha tadbirlarga tuzish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ulardagi yer tuzish yechimlarini iqtisodiy asoslash kapital xarajatlar samaradorligini baholash bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ishchi loyihalarining har xil turlarida iqtisodiy asoslashning tartibi, mazmuni va ko'rsatkichlari bir xil emas. Xususan, ishchi loyihalarda murakkab maydonchali ob'ektlar va chiziqli ob'ektlarni va inshootlarni ajratish kerak.

Natija. Ishchi loyihalarining birinchi turi (yerlarni o'zlashtirish, bog'larni ekish va hududni tashkil etish, yerlarni melioratsiyalash va boshq.) Ishchi loyihalar ko'pchilik hollarda ikki bosqichli bo'ladi; birinchi bosqichida hududni tashkil etishning bosh chizmasi plani, ikkinchisida - loyihaning o'zi yoki yerlarni o'zlashtirish uchun ishchi hujjatlar tuziladi (o'zlashtirish bosqichlari bo'yicha). Bunda hududni tashkil etishning bir necha yechimi ishlanadi. Mezon sifatida kapital xarajatlar samaradorligining (masalan, keltirilgan xarajatlar minimumi) nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Agar hududni yangi tashkil etish mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishiga olib kelsa, asosiy ko'rsatkich keltirilgan xarajatlarning 1 so'mi hisobiga sof daromadning o'sishi bo'ladi:

$$\frac{\Delta C\bar{D}}{KE_M + C} \rightarrow \max$$

bunda K - kapital xarajatlar hajmi;

E_M - kapital xarajatlar samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti;

S - ishlab chiqarishning yillik xarajatlari.

Chiziqli ob'ektlar va inshootlar (yo'llar, kanallar, suv bilan ta'minlash tarmoqlari, o'rmon polosalari va sh.o.) uchun ishchi loyihalar qurilish materiallarini,





konstruksiyalarini, texnologiyalarini va ishlarni bajarish usullarini, daraxtlar navlarini va sh.o'. tanlash masalalarini yechishni ko'zda tutadi. Ularni ishlash bir bosqichda amalga oshiriladi, yechimlarni asoslashda esa kapital xarajatlarning mutloq samaradorligi (kapital xarajatlar samaradorligi koeffitsiyenti

$YE = \Delta C / K$, qoplanish muddati $T=K/SD$, $T=1/E$) ko'rsatkichlaridan foydalaniladi; yana mos me'yoriy qiymatlar bilan solishtirish o'tkaziladi.

Buzilgan yerlarni rekultivatsiyalash bo'yicha ishchi loyihalarini ekologik samaradorligi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish zaruratidan kelib chiqadi va eng avvalo, yer tuzish tadbirlarining va ishlab chiqarishning bizni o'rab turgan tabiiy muhitga ta'sirida, yerlarni yaxshilash, ularni eroziyadan himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish choralarini amalga oshirish orqali ko'rinadi [4].

Loyihaning ekologik samaradorligi asosiy hisoblanadi. Unga bo'lgan talab loyihaning har bir elementiga va har bir tarkibiy qismiga qo'yiladigan qattiq ekologik, tabiatni muhofazalash me'yorlarini bajarish zaruratida namayon bo'ladi. Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha yer tuzish loyahasining hech bir yechimi, agar u bu me'yorga mos kelmasa ko'rib chiqilishi mumkin emas [3].

Buzilgan yerlarni rekultivatsiyalash bo'yicha ishchi loyihalarini ekologik samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari jumlasiga quyidagilar kiritish maqsadga muvofiq:

➤ har bir yer uchastkasi bo'yicha olinadigan yerlarning sifati ahvoliga yer tuzishning ta'sirini kompleks baholash ma'lumotlari (gumus balansi; makro va mikro elementlar, og'ir metallar, radionuklidlar, qoldiq pestitsidlarning harakatchan shakllarining miqdori; yerlarning qishloq xo'jaligi uchun yaroqliligi bo'yicha toifalari, sinflari, mahsuldorligi bo'yicha baholash balli; kislotalashishi, namlanish rejimi; sizot suvlari sathi, suv sig'imi, mahsuldor suv zaxirasi; tuproqlari, reliefi va boshq. sharoitlari bo'yicha bir xilligi);

➤ tuproqlarning suv eroziyasi va deflyasiya jarayonlarining pasayishi to'g'risida ma'lumotlar (tuproqlarning yuvilishi, joylar jarliklashishining pasayishi, eroziyaga uchragan yerlarni o'tloqlashtirish va o'rmonlashtirish, ekinlarning eroziya xavfi koeffitsiyentlari va eroziya xavfi bor davrlarda tuproqlarning o'simliklar bilan loyihaviy qoplanishi, tartibga solingan suv oqimi hajmi, mikroiklim sharoitlarining o'zgarishi);

➤ yerlarning tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ma'lumotlar (suv-himoya mintaqalari va qirg'oqbo'yi polosalarining, sanitariya himoya mintaqalarining, himoyaladigan landshaftlarning, konservatsiyalanish bosqichidagi yer uchastkalarining, sanitariya va zooveterinariya oraliqlarining, himoya, taqiqlangan va muhofaza mintaqalarining mavjudligi);

➤ hududning ekologik tuzulishini tavsiflovchi ma'lumotlar (ekologik birliklar, mikroqo'riqxonalar, hududning ekologik har xilligi, ekologik turg'unligi indeksleri,





«chekka samara» hisobga olingan agroladshaftlarning mahsuldorligi, ekotonlar uzunligi va boshq.).

Noqishloq xo'jalik ob'ektlarini qurish va foydalanishning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sirini aniqlash - xo'jaliklararo yer tuzishdagi eng murakkab masalalardan biridir. Avvalo bu yer ajratish turlarining ko'p xilligi bilan bog'liq. Yer muddatsiz yoki vaqtincha foydalanish uchun har xil ob'ektlarni va texnologik uchastkalarini sanoat maydonchalarini, har xil maqsadlarga mo'ljallangan tik quvur quduqlarni, chiziqli inshootlarni (elektr tarmoqlari, quvur o'tkazgichlar, avtomobil, temir yo'llar va sh.o'), suv transporti ob'ektlari, aerodromlar va uchish-qo'nish polosalari, qazib oluvchi sanoat ob'ektlari (tog' jinslari uyumlari, karerlar, shaxtalar va sh.o.) shlaklari yig'iladigan joylar va kul tepalar, chiqindixonalar va qabristonlar, atom va issiqlik elektrostansiyalari, suv omborlari va sh.o. joylashtirish uchun ajratiladi.

Xulosa. Shunday qilib, yerlarni noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun ajratishning salbiy oqibatlarini sifatida ob'ektni qurish uchun izlanishlar boshlanganidan to undan foydalanish davrigacha yerlardan qishloq xo'jaligida foydalanish sharoitida yuz bergan barcha noqulay son va sifat o'zgarishlarini tuzatish kerak. Hozirgi vaqtda salbiy natijalarni bunday kompleks tarzda hisobga olish, bu muammo allaqachon paydo bo'lganiga qaramasdan amaliyotda o'tkazilmaydi.

O'zbekiston qonunlarida yer monitoringini tashkil etish ko'zda tutilgan. Bunday monitoring aniq faoliyat ko'rsatuvchi kuzatuvlar tizimidan, antropogen ta'sirlar natijasida yer fondi ahvolidagi o'zgarishlarni aniqlash va baholashdan iborat bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlar asosida noqishloq xo'jalik ob'ektlarini joylashtirish bo'yicha zarur bashoratlar va amaliy tavsiyalar ishlanishi zarur.

Monitoringni tashkil etish oldidan «oqibatlar daraxti» deb nomlanadigan, har bir yer ajratishning ma'lum tabiiy-qishloq xo'jalik mintaqalari agroladshaftlariga ta'sirini ko'rsatuvchi hujjat ishlanishi zarur[5].

Yuqoridagi tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zararlarini qoplash uchun budjetga tushadigan mablag'lar quyidagi turdagi ishlarni bajarish uchun ishlatilishi mumkin:

- qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni o'zlashtirish;
- jarliklarni ko'mish va qirg'oqlarni xavfsiz qiyaliklar shaklida tekislash, qiyaliklarni o'zlashtirish;
- o'zlashtiriladigan yerlarga yo'llar qurish;
- qishloq xo'jalik yerlarini tubdan yaxshilash, buzilgan va ifloslangan qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari unumdorligini tiklash;
- sug'orish va zax qochirish tizimlarini qurish va ta'mirlash;
- ihota daraxtlari polosalari yaratish;
- o'g'it uchun torf tayyorlash va foydalanish;
- topografik, geodezik, tuproq, geobotanik va boshqa yer resurslarini o'rganish, yangi yerlarni o'zlashtirish va ularning unumdorligini oshirish, foydalanilayotgan qishloq xo'jalik yerlarini yaxshilash bilan bog'liq ishlarni o'tkazish.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi". - T.: "Adolat", 2018. - 154 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son farmoni. www.lex.uz

3. С.Авезбаев. Экономические и социальные основе организации рационального использования земельных и водных ресурсов в районах экологического бедствия (на примере низовья Амударьи).М.: 1992. 190 с.

4.А.Р Бабажанов, С.Р Шарипов, Б.М Успанкулов. ЗЕМЛИ ЛЕСНОГО ФОНДА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И АНАЛИЗ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ. *Вестник Казахского гуманитарно-юридического инновационного университета*. 2017. № 1(33). С. 198-201.

5. Sharipov S.R. The types of disturbed lands and the main directions of their reclamation. *ECONSPEAK: A journal of Advances in Management IT social Sciences,International Virtual conference on The ways of innovative approach on the Deployment of Science and Education // Vol.9, issue 5, May 2019. P.75-81.*

6.Авезбаев С., Шарипов С.Р. Разработка проектов рекультивации земель с использованием гис технологий. *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION (Journal)*-5, 2021. 178-182с

